

TARIXIY VA IJTIMOIIY-SIYOSIY OMILLAR ASOSIDA VUJUDGA KELGAN SUV OBYEKTI NOMLARI

(Janubiy Qoraqalpog'iston gidronimlari misolida)

Azizbek Kamolov Ulug'bekovich
Ajiniyoz nomidagi NDPI 2-bosqich
doktoranti

***Annotatsiya.** Ushbu maqola Janubiy Qoraqalpog'iston etnogidronimlari va antropogidronimlarining kelib chiqishini aniqlash orqali hududning madaniy va tarixiy merosini yoritadi, motivlarini ochib beradi.*

***Kalit so'zlar.** Etnogidronim, gidroobyekt, Antropogidronim, etnos, motiv, etnonim.*

***Annotation:** This an article explores the origins of ethnohydronyms and anthropohydronyms in Southern Karakalpakstan, illuminating the region's cultural and historical heritage while revealing their underlying motivations.*

***Keywords:** Ethnohydronym, hydroobject, anthropohydronym, etnos, motivation, ethnonym.*

Gidronimlar toponimikaning eng muhim bo'limlaridan biri bo'lib, uni o'rganish ilmiy, nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Muayyan hudud gidronimiyasini o'rganish muayyan xalq tarixi, geografiyasi, etnografiyasida yangi omillarni aniqlash imkonini beradi. Gidronimlar toponimikaning eng qadimiy qatlami bo'lib, shunchaki nominativ vazifani bajaribgina qolmay, ular xalq hayoti bilan chambarchas bog'liq bo'lganligi uchun ko'pincha muayyan xalqning milliy fazilatlarini, urf-odat va an'analarini o'zida aks ettiradi.

Etnogidronimlar. JQ gidronimiyasining o'ziga xos xususiyatlaridan biri unda etnogidronimlarning, ya'ni turli elat, millat, xalq, urug', qabila nomi bilan atalgan etnogidronimlarning ancha keng tarqalganligidir. JQ hududida o'zbek urug'laridan tashqari qoraqalpoq, qirg'iz, turkman, qozoq kabi turkiy xalqlarga mansub etnik guruhlar yashab kelmoqda. Shu sababli, ham etnik guruhlar nomlariga oid so'z o'sha joyda qo'llangan gidronimlarda ham o'z ifodasini topgan.

JQ etnogidronimlarining qanday etnonim asosida yuzaga kelganligiga ko'ra ikki guruhga bo'lish mumkin:

1. Ma'lum va mashhur yirik etnoslar nomi asosida shakllangan gidronimlar. Bunday etnogidronimlar asosini turli xalq va millat nomlari tashkil etadi:

Qozoqyap (ariq-**Beruniy t.**), Naymanyap (kanal- **Beruniy t.**), Qipchoqarna, Turkmanyap (kanallari - **Amudaryo t.**), Karakalpakiya (kollektor- **Amudaryo t.**) kabi.

2. Turkiy urug' va qabila nomlari asosida shakllangan etnogidronimlar

Mang'itarna, Xo'jako'l, Qang'li kanallari (**Amudaryo t.**) *Jag'albayli* kanal **Beruniy t.** kabi.

Har bir etnogidronim o'zining nomlanish motiviga ega. Masalan. **Jag'albayli**-o'zbek qipchoqlar orasidagi urug'. Payariq, Urgut, Pastdarg'om, Narpay, Xatirchi, Oqqo'rg'on tumanlarida Jag'albayli, Oqdaryo tumanida Jag'alto'y qishloqlari bor. Qozoqlar tarkibida ham jag'albayli, qirg'izlar tarkibida jagal'may, boshqirdlar tarkibida yagalbay urug'i qayd qilingan. Hamma hollarda bu urug' tamg'asi shaklan uchib borayotgan ovchi qush jag'albay (jig'alto'y) qushiga o'xshagani uchun shunday nom olgan [S.Qorayev,2006:190]. Undan tashqari, Nayman urug'laridan biri ham Jag'albayli nomi bilan atalgan. Beruniy tumani Oltinsoy OFY hududidagi *Jag'albayli* kanali ham ushbu urug' nomi bilan bog'liq hisoblanadi

Etnogidronimlar etnik guruh vakillari tomonidan qazilgan yoki bizga ma'lumki, qadimdan ajdodlarimiz gidroobyektlar bo'ylarida istiqomat qilishgan natijada, muqim (o'troq) yashab qolgan gidronimlar ham keyinchalik shu etnik guruhlar nomi bilan atalgan.

Antropogidronimlar. JQ gidronimlari nomlari, xususan, mikrogidronimlar ichida antropogidronimlar, ya'ni kishilarning familiyalari, ismi hamda laqablari bilan ataladigan gidronimlar son jihatidan etnogidronimlardan keyingi o'rinlarda turadi. "Shaxslar nomini gidronimlarga qo'yish katta etimologik bilimni talab etadi hamda unda shaxsning kelib chiqishi, ijtimoiy-iqtisodiy, moddiy-ma'naviy, siyosiy, jamiyat taraqqiyotida tutgan o'rni, aql-tafakkuri, mahalliy hudud rivojiga qo'shgan hissasi alohida ahamiyat kasb etadi.

Suv obyektlarining nomlanishida shu obyektning joylashish o'rni, qanday etnik guruhga mansubligi, obyekt atrofidagi o'simliklar va hayvonot dunyosi, uni bunyod etilishiga rahbarlik qilgan hamda bunyod etgan shaxs nomlari motiv vazifasini bajaradi [Улуков Н, 2008:87]. JQ antropogidronimlarini qanday suv obyekti nomini bildirishiga ko'ra quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

1. Kishi nomlari bilan atalgan ariq nomlari:

Amudaryo tumanida: Seityap (ariq), Eshonyap (ariq), Alili (ariq), Beruniy tumanida: Chapayyap (ariq) kabi.

2. Kishi nomlari bilan atalgan kanal nomlari:

Amudaryo tumanida: Shixjamol, Nazarxan, Xolimbegyop, Aliliyop, Tajig'ali kanallari, Beruniy tumanida: Xaytbayarna, Shabboz, Yerimbetketgen, Navoiy, Maxtumquli, Abay, Guliston, Djumaniyaz kanallari, *Ellikqal'a* tumanida: Narimjonbuva-1 (tarmoqlovchi kanali) kabi.

O‘ZBEK TILI TADQIQI VA TA‘LIM MUAMMOLARI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

JQ hududida, antropogidronimlarning kishi nomlari bilan atalgan hovuz nomlari, kishi nomlari bilan atalgan jilg‘a nomlari, kishi nomlari bilan atalgan soy nomlari va boshqa ma’noviy guruhlar bilan bog‘liq gidronimlar deyarli uchramaydi.

Topogidronimlar.

Suv obyektlarining toponimlarga nisbat berish asosida yuzaga kelgan atoqli nomlari topogidronimlar hisoblanadi. Tilning toponimik tizimi doirasida bu hodisa transonimizatsiya (biror tip atoqli otning, boshqa tip atoqli otga o‘tishiga) deb aytiladi [Бегматов Э, Улуқов Н.:84.] Quyidagi (Beruniy, To‘rko‘l, Ellikqal‘a tumanlari) misollarda suv obyekti nomi ovul, ko‘cha, shaharcha, mahalla nomlariga o‘tgan.

№	Nomi	Geografik obyekt turi	Me‘yoriy hujjati
Beruniy tumani			
1.	Shabboz	Ovul nomi	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Beruniy tumani “O‘zbekiston Respublikasining ma’muriy-hududiy tuzilishi” ma’lumotnomasi, 1996
2.	Oltinsoy	Ovul nomi	
3.	Shabbaz	OFY nomi	
4.	Saroyko‘l	MFY nomi	Beruniy tumani. Xalq deputatlari Beruniy tumani kengashining 24.02.2020 y. 2/10-sonli qarori
5.	Egri ariq	Ko‘cha nomi	Beruniy tumani. Xalq deputatlari Beruniy tumani kengashining 28.12.2020 y. 17/79-sonli qarori
6.	Bog‘solma	Ko‘cha nomi	
7.	Mingbuloq	Ko‘cha nomi	
8.	Marjonbuloq	Ko‘cha nomi	
9.	Bo‘zyop	Ko‘cha nomi	
10.	O‘rtayop	Ko‘cha nomi	
11.	Kattaariq	Ko‘cha nomi	
12.	Olchinko‘l	Ko‘cha nomi	
13.	Sariqko‘l	Ko‘cha nomi	
14.	Chuqursoy	Ko‘cha nomi	
15.	Toldibuloq	Ko‘cha nomi	
16.	Shirinquduq	Ko‘cha nomi	
17.	Qattijg‘aryob	Ko‘cha nomi	
18.	Ag‘janko‘l	Ko‘cha nomi	
19.	Bog‘solma	Ko‘cha nomi	
20.	Qorako‘l	Ko‘cha nomi	
21.	To‘rtariq	Ko‘cha nomi	
22.	Anhorbo‘yi	Ko‘cha nomi	
23.	Oqko‘l	Ko‘cha nomi	
24.	Mardonko‘l	Ko‘cha nomi	
25.	Uzunbuloq	Ko‘cha nomi	
26.	Cho‘manko‘l	Ko‘cha nomi	
27.	Orol	Ko‘cha nomi	
28.	Saroyko‘l	Ko‘cha nomi	

O'ZBEK TILI TADQIQI VA TA'LIM MUAMMOLARI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

29.	Aqchako'l	Ko'cha nomi	
30.	To'rtko'l	Ko'cha nomi	
31.	Saroyko'l	aholi punkti	
Ellikqal'a tumani			
3.	Arnasoy	Ko'cha nomi	Qoraqalpog'iston Respublikasi Ellikqal'a tumani. Xalq deputatlari Ellikqal'a tumani kengashining 24.02.2020 y. 2/9-sonli qarori
4.	Oydinbuloq	Ko'cha nomi	
5.	Yangiariq	Ko'cha nomi	
6.	Oqdaryo	Ko'cha nomi	
7.	Oqchashma	Ko'cha nomi	
8.	Bo'zsvuboyi	Ko'cha nomi	
9.	Boshariq	Ko'cha nomi	
			Ellikqal'a tumani. Xalq deputatlari Ellikqal'a tumani kengashining 24.02.2020 y. 2/9-sonli qarori
10.	Sariko'l	Ko'cha nomi	
11.	Sirdaryo	Ko'cha nomi	
12.	Amudaryo	Ko'cha nomi	
13.	Erkindaryo	Ko'cha nomi	
14.	Bog'yap	Aholi punkti	
15.	Chuqurqoq	Mahalla	
16.	Bog'yap sohili	Ko'cha nomi	
17.	Anhorbo'yi	Ko'cha nomi	
18.	Oqsoy	Ko'cha nomi	
19.	To'rtyop	Ko'cha nomi	
20.	Oltiariq	Ko'cha nomi	
21.	Qo'shayop	Ko'cha nomi	
22.	Moyliko'l	Ko'cha nomi	
23.	Quduqboshi	Ko'cha nomi	
24.	Bo'zyopbo'yi	Ko'cha nomi	
25.	Qilichinoq bulog'i	Ko'cha nomi	
26.	Korako'lsolma	Ko'cha nomi	
27.	Qirqqizobod	Ovul nomi	Ellikqal'a tumani. "O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishi" ma'lumotnomasi, 1996
To'rtko'l tumani			
1.	Toza bog'yop	Ovul	To'rtko'l tumani. "O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishi" ma'lumotnomasi, 1996
2.	Turkmanko'l	Shaharcha	To'rtko'l tumani. Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi Prezidiumining 23.12.2008 y. 230-sonli qarori
3.	Bardonko'l	Ko'cha nomi	
4.	Qorako'l	Ko'cha nomi	
5.	Ko'kdaryo	Ko'cha nomi	
6.	Turkmanko'li	Mahalla	
7.	To'rtko'l	Ko'cha nomi	
8.	Choyko'l	Ko'cha nomi	
9.	Tolariq	Ko'cha nomi	

O'ZBEK TILI TADQIQI VA TA'LIM MUAMMOLARI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

10.	Moylisoy	Ko'cha nomi
11.	Chuqursoy	Ko'cha nomi
12.	Shirinariq	Ko'cha nomi
13.	Suvbo'yi	Ko'cha nomi
14.	Shirinsuv	Ko'cha nomi
15.	Shirmonbuloq	Ko'cha nomi
16.	Marjonbuloq	Ko'cha nomi
17.	Sariko'l	Ko'cha nomi
18.	Qumyop	Berk ko'cha
19.	Qumbuloq	Ko'cha nomi
20.	Qumboskan kanali	Ko'cha nomi
21.	Qumariq	Berk ko'cha
22.	Qorasuvbo'yi	Ko'cha nomi
23.	Qorasuv	Ko'cha nomi
24.	Qoranko'l	Tor ko'cha
25.	Qorabuloq	Berk ko'cha
26.	Qozoqarna	Berk ko'cha
27.	Yangiariq	Ko'cha nomi
28.	Yangiyop	Ko'cha nomi
29.	Vaziryop	Ko'cha nomi
30.	Ko'kdaryo	Ko'cha nomi
31.	Beshariq	Ko'cha nomi
32.	Zarbuloq	Ko'cha nomi
33.	Buloqboshi	Ko'cha nomi
34.	Bardonko'l	Ko'cha nomi
35.	Arnasoy	Ko'cha nomi
36.	Orol	Ko'cha nomi
37.	Uzunquduq	Ko'cha nomi
38.	Amudaryo	Ko'cha nomi
39.	Bog'yop	Ko'cha nomi
40.	Bo'zyop	Ko'cha nomi
41.	Bo'zyop	Mahalla nomi
42.	Paxtaarna	Aholi punkti
43.	Qo'shayop	Aholi punkti
44.	Suvxonyop	Aholi punkti

Shunday qilib, har qanday nomning asosi (motiv)lari tarixiy va sotsial ma'noga egadir. Hududdagi gidronimlarni o'rganish tadqiqotchi olimlarda katta qiziqish uyg'otadi. Janubiy Qoraqalpog'iston gidronimlari respublikamizdagi yagona toponimik tizimning ajralmas qismi bo'lib, onomastika fani uchun qimmatli materialdir.

Foydanilgan adabiyotlar:

1. Toponimika: O‘quv qo‘ll./ S. Qorayev. — T.: «O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti», 2006. — 190 b.
2. Улуков Носиржон Ўзбек тили гидронимларининг тарихий-лисоний тадқиқи://Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси. - Тошкент: Фан, 2008. –Б.87
3. Семушкин, Валерий Александрович. Гидронимия Среднего Дона: номинационный и словообразовательный аспекты: дис. Кандидат филологических наук: 10.02.01 Русский язык. Воронеж. 2000. 141 с
4. Azizbek, K. (2023). JANUBIY QORAQALPOG‘ISTON HUDUDIDAGI TABIIY GEOGRAFIK BELGILAR ASOSIDA VUJUDGA KELGAN GIDRONIMLARNING GEOMORFOLOGIK XUSUSIYATLARI. *SCIENCE TIME JOURNAL*, 1(1), 29-35.
5. Мурзаев Э.М. Основные направлений топонимических исследований. В кн. «Принципы топонимики». -М.; 1964
6. Бегматов Э, Улуков Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати.– Наманган, 2006. – Б. 84.
7. Ulug‘bekovich, K. A., & Tolbaevna, K. Z. (2024). TOPONOMIKADA GIDRONIMLARNING O‘RNI VA GEOGRAFIK TAMALAR NOMLANISHIDAGI O‘RNI. *INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER'S THEORY*, 2(6), 158-161.
8. Azizbek, K. (2024). “BOBURNOMA” ASARIDA GIDRONIMLARNING QO‘LLANILISHI. *INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER'S THEORY*, 2(5), 407-410.
9. Ulugbekovich, K. A. (2023). O‘ZBEKISTON TOPONIMLARINING O‘RGANILISH TARIXI. *Barqaror Taraqqiyot va Rivojlanish Tamoyillari*, 1(5), 34-42.
10. Azizbek, K. (2023). TO‘RTKO‘L TUMANIDAGI AYRIM GIDRONIMLARINING TASNIFLANISHI. *Barqaror Taraqqiyot va Rivojlanish Tamoyillari*, 1(3), 12-14.
11. Azizbek, K. (2023). JANUBIY QORAQALPOG‘ISTON HUDUDIDAGI TABIIY GEOGRAFIK BELGILAR ASOSIDA VUJUDGA KELGAN GIDRONIMLARNING GEOMORFOLOGIK XUSUSIYATLARI. *SCIENCE TIME JOURNAL*, 1(1), 29-35.
12. Azizbek, K. (2023). Janubiy Qoraqalpog‘iston hududidagi antropogidronimlarining ba‘zi semantik xususiyatlari. *Barqaror Taraqqiyot va Rivojlanish Tamoyillari*, 1(1), 4-7.
13. Kamalov, A. (2022). MULTIMODAL KORPUSNI YARATISH VA TAHLIL QILISHDAGI TADQIQOT YO‘NALISHLARI. *TA‘LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(10), 82-85.